

LEKSIK-SEMANTIK VOSITALAR LINGVOPOETIKASI

(*Sharof Boshbekov dramalari misolida*)

Gavhar Andaniyazova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi

gavharandaniyazova@gmail.com

ORCID: 0009-0000-7618-8212

Annotatsiya. Badiiy matnda leksik-semantik vositalarning badiiy-estetik vazifasi, poetik qimmatini alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ijodkorning individual-badiiy uslubini shakllantirishda va asar tilining o'ziga xosligini ta'minlashda leksik-semantik vositalarning o'rni xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, poetik aktuallik, leksik-semantik birliklar, sinonimlar, antonimlar, paronimlar.

Annotation. Of particular importance is the artistic and aesthetic function, the poetic value of lexical-semantic means in the literary text. This article considers the role of lexic-semantic tools in the formation of the artist's individual-artistic style and ensuring the originality of the language of the work.

Keywords: literary text, poetic actuality, lexical-semantic units, synonyms, antonyms, paronyms.

Ijodkor leksik vositalardan badiiy asar matnini hosil qilishda o'z so'z boyligidan, xayolot olamining kengligidan kelib chiqqan holda foydalana oladi. "Badiiy matnни lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilganiga e'tiborni qaratish kerakligi haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Chunki badiiy matnda so'zdagi konnotativ ma'no muhim va bu ma'noni harakatga keltirish, unga asoslangan holda yaxlit badiiy mazmunga xizmat qiladigan original badiiy ma'nolarni yuzaga keltirish yozuvchi mahoratiga bog'liq"¹. Muayyan bir ijodkorning badiiy matndagi poetik aktuallashtirilgan leksik vositalarning lingvopoetik qimmatini belgilashda sinonim, omonim, antonim, ko'chimlar, shevaga xos so'zlar, dag'al va chet so'zlarga alohida diqqatni qaratish maqsadga muvofiqdir. O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda lingvopoetika bo'yicha qilingan bir qancha ishlar misolida bu borada

¹ Юлдашев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанл. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.

ilgari surilgan xulosalar soha rivojiga hissa qo'shayotganining guvohi bo'lishimiz mumkin².

Ma'lumki, sinonimlar poetik nutq uchun bir ma'noni xilma-xil so'zlar orqali turli nozik qirralari bilan ifodalashda, so'z jilosini namoyish etishda, nutqni bezashda, ta'sirchanlikni oshirishda alohida lingvopoetik imkoniyatga ega bo'lgan birlikdir. Sababi aslida muayyan tushunchani bildiradigan so'zlar ifoda darajalariga ko'ra o'zaro farqlanishi; bir tushunchani ifodalovchi so'zlar orasidan emotsional-ekspressivligiga ko'ra biri ikkinchisidan farqlanib, ulardan birining badiiy maqsad bilan qo'llanishidir.

Tilshunos N.Mahmudov ta'kidlaganidek, "...tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, demakki, uning zanginligi va ranginligini ta'min etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklararo ma'nodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining ko'lamdorligidir. O'zbek tili ana shunday qadimiy va rivojlangan boy tillardan biri sifatida salmoqli miqdordagi sinonimik munosabatlar asosida birlashgan yoki birlashadigan so'z gavharlari zaxirasiga sohib tildir"³. Dramaturg Sh.Boshbekov ham asarlarida sinonimlardan maqsad va mahorat bilan foydalangan. Ijodkor asarlaridagi sinonimlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e'tibor qaratish zarur:

1. Muallifning ikki yoki undan ortiq sinonimlardan ifodalanayotgan mazmun uchun eng ma'qul birini tanlashi. Bilamizki, o'zbek tilining izohli lug'ati⁴da *g'ingshimoq* so'zi – ma'nosiz yoki ma'nosini ilg'ab bo'lmaydigan tovushlar chiqarib yig'lash mazmunini ifodalaydi. Muallif qahramonning yig'isi holatini bu so'zning sinonimi *ingramoq* so'zi bilan ham ifodalashi mumkin edi. Ammo "*yig'lamayman*" deb turgan qahramon gipnozning asli haqiqat bo'lgan "*yolg'on*"laridan keyin yosh boladay *g'ingshib* yig'lashida ham so'zning mazmuni bilan bog'liq quyidagi o'ziga xos lingvopoetik ma'no mavjud: birinchidan, qahramonning yosh bolaga o'xshatilishi – uning chorasizligi, hech narsa qo'lidan kelmasligiga ishora; ikkinchidan, qahramon ruhiyatida ma'nosini ilg'ab bo'lmaydigan tovushlar kabi fojiasini o'zi ham uncha anglab etmayotgan, hali yuzaga chiqmagan, gipnoz orqali kutilmaganda portlab chiqqan og'riq bor: Alomat. *Yig'lagansiz. Faqat ko'zlaringizning narigi tomoni bilan yig'lagansiz. Ko'zyoshlaringiz tashqariga emas,*

² Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) .. дисс. . – Фарғона, 2017; Курбонова М. Мустақиллик даври дostonлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2017; Шодмонова Д. Абдулла Орипов шеърятининг лингвопоэтик хусусиятлари (метофорик ҳодиса мисолида): Филол. фан. номз ... дисс. – Қарши, 2019; Умирова С. Ўзбек шеърятда лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърят мисолида): Филол. фан. номз ... дисс. – Қарши, 2019; Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020; Аллаёров Т. Ўзбек тилидаги буйруқ ва сўроқ конструкцияларнинг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Гулистон, 2020; Yuldashev J. Usmon Nosir she'riyati lingvopoetikasi: Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023.

³ Махмудов Н. Синонимлар – тил зангинлиги ва рангинлиги кўзгуси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021. – № 4. – Б. 3.

⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I jild. – B. 459.

ichingizga oqqan. Mana mening ichim to'la temir-tersak, sizning vujudingiz esa faqat va faqat ko'zyoshidan iborat. Lim-lim yosh...

Qo'chqor. (baralla yig'lab yuboradi, sapchib turib oyog'i ostidagi qutini zarb bilan tepadi). E, padariga la'nat hammasining!!!

Alomat. Nega unaqa qilyapsiz, Qo'chqor aka, axir bu shunchaki gipnoz-ku.

Qo'chqor. E, gipnozingizning ham padariga ming la'nat! (Yosh boladay **g'ingshib** yig'laydi). ("Temir xotin", 182-bet)

Quyidagi matnda esa *qarimoq* leksemasi o'rnida kelgan *sochi oqardi*⁵ turg'un birikmasi tarkibidagi *oqarmoq* so'zi o'rniga kontekstual sinonim *qirov tushmoq* birikmasining qo'llanishi ijodkorning o'z muddaosiga yaqinlashishiga ko'mak bergan. Sababi *Shavkat*ning sochidagi oq keksalik bilan bog'liq emas, balki boshiga kutilmaganda tushgan falokat – zilzila natijasida bir kunda yaqinlaridan ayrilgan inson tasviri edi. Bu kabi ekspressivlikni oshirish, mavjud ma'nodoshlar ichidan maqbulini tanlab ko'zlagan maqsadiga bo'ysundira olish dramaturgning asarlarida ko'p kuzatiladi. Masalan: *Suratni qo'lida ko'targanicha, negadir, u yoqdan-bu yoqqa izillab yugura boshladi. So'ng holdan toyib, umidsizlik bilan o'tirib qoldi. Hovli burchagida o'g'lining uch g'ildirakli velosipediga ko'zi tushib, fig'oni battar falakka chiqdi. Aqldan ozadigan darajaga etdi. Ko'zyoshlari tugagan – endi uning yig'isi ko'proq xirgoyiga o'xshab ketardi. Sochiga qirov tushdi. Esi og'ib qolgan – qayoqqa ketayotganini o'zi ham bilmasdi.* ("Falakning gardishi", 418-bet)

Yana matnda muallif badiiy ta'sirchanlikni oshirish maqsadida *eti qochgan, vazni me'yordan kam* mazmunini ifodalovchi **ozg'in** so'zining sinonimlar qatoridagi *oriq, qiltiriq, dirdov, ipiltiriq, ramaqijon, qoqsuyak, log'ar* kabi so'zlaridan boshqalariga qaraganda belgi darajasi yuqori bo'lgan birini – **ramaqijon** so'zini tanlaydi va bu so'zda mazkur ma'no *obrazli tarzda ifodalanib, holdan toyganlik ma'nosi kuchli ta'kid oladi hamda so'zlovchining kamsitishdan iborat shaxsiy munosabati* ham anglashiladi⁶. Demak, ijodkor til birliklarining ma'no imkoniyatlarini axtargan tasvirdagi aniqlik va ekspressivlikni oshirish maqsadida ayni munosibini topa bilgan. Masalan: *Erkak. ...Nimani o'ylayapsiz, deyapman?*

Ayol. *Ha... Menmi? Ko'rib turibsiz, o'zim bu erdan tusholmayapman. Shu meni ko'tarib tushiolarmikinsiz – shuni o'ylayapman. Yo'q ko'tarolmasangiz kerak, ramaqijongina ekansiz. Hay, bilmadimov... Buning ustiga qoningiz kam.* ("Taqdir eshigi", 28-bet)

Yuqoridagi matnda *ramaqijon* so'ziga qo'shilgan ozaytirma daraja hosil qiluvchi qo'shimcha belgining yanada kuchsizlanishiga urg'u berish bilan birga achinish mazmunini qo'shgan. Bu esa qahramon(erkak)ni atay so'z orqali kamsitib o'z maqsadiga etish uchun ayyorlik qilayotgan ayol nutqining ishonarli va ta'sirchan

⁵ O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022. – B. 461.

⁶ O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022.

I jild. – B. 459.

chiqishini ta'minlagan. Chunki ayol kishining oldida har qanday qahramonlikka tayyor turish, unga o'zining kuchli ekanligin isbotlash xohishi ustunligi bu jins vakillari tabiatidagi gender chizgilardan ham ma'lum.

2. Muallifning ayni bir matn tarkibida ikki va undan ortiq sinonimik birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashi⁷.

Ma'lumki, ijodkorning ikkinchi turdagi sinonimlardan foydalanishi bir so'zning ayni takrori natijasida vujudga keladigan nutq kambag'alligi va rangsizligining oldini olishni hamda ekspressivlikni ta'minlaydi. Bilamizki, *to'la, lim, limmo-lim, labolab, lab-balab, to'liq* so'zlari o'zaro ma'nodosh so'zlar bo'lib, *butun hajmi, sig'imi egallangan, band bo'lgan, oxirigacha to'lgan* kabi mazmunni ifodalashga xizmat qiladi. *Lim, limmo-lim, labolab, lab-balab* so'zlarida belgining nihoyatda ortiq ekanligi ifodalanadi, bu so'zlar ko'proq kitobiy uslubga xoslangan⁸ bo'lib, to'laga nisbatan toshib turish holati bilan ajralib turadi va asosan, suyuqlikning me'yordan oshiqqligini ifodalash maqsadida qo'llanadi. Masalan: Alomat. *Yig'lagansiz. Faqat ko'zlarigizning narigi tomoni bilan yig'lagansiz. Ko'zyoshlaringiz tashqariga emas, ichingizga oqqan. Mana mening ichim to'la temir-tersak, sizning vujudingiz esa faqat va faqat ko'zyoshidan iborat. Lim-lim yosh...* ("Temir xotin", 182-bet)

Ijodkor yuqoridagi matn tarkibidagi ushbu so'zdagi belgining shunday ham ortiq ekanligiga qanoatlanmay yanada ekspressivlikni oshirish maqsadida so'zni takror holda *lim-lim* tarzida qo'llaydi. Natijada millatga xos ruhiy belgilardan biri bo'lgan "Erkakning yo'rig'i boshqa – uyat bo'ladi" deb hisoblaydigan qahramonning hadsiz ezilganligini anglash, uning g'amining, iztirobining bosqichini bemalol ko'z oldimizga keltirishimiz uchun lingvopoetik imkon yaratadi.

Quyidagi ayni bir matnda tarkibida ikkita sinonimik birlik ma'noni kuchaytirish maqsadida uyg'un holda qo'llangan, ammo bu ikki sinonim belgi va daraja jihatidan bir-biridan farqlanadi. *Chuqurlik* so'zida o'rin-joy oti bilan bog'liq mazmun bo'lsa, *tubanlik* so'zida esa bu mazmundan tashqari salbiy munosabat ham ufurib turadi. Ijodkor bu so'zning inja ma'nolarini sezgani uchun ham ushbu sinonimlarga murojaat etgan. Masalan: Misriyo. *Rahmat, hammalaringni yaxshi ko'rib ketyapman...*

Soli. *Meniyammi?*

Misriyo. *Haa...*

Soli. *Kech, azizam, kech! Men bu qadar chuqurlikdagi, ya'ni tubanlikdagi muhabbatni tan olmayman!* ("Tikansiz tipratikanlar", 66-bet)

Quyidagi matn tarkibidagi *haqorat qilmoq, tahqirlamoq* fe'llarining kimnidir juda ayovsiz kamsitish hissini uyg'otish kabi salbiy bo'yoqdorlikka ega ekanligi va ma'noning o'sish darajasi bilan o'zaro farqlanishi barchaga ma'lum. Yana kishining

⁷ Bu haqda qarang: Ёўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоетик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 32.

⁸ O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022. I jild. – B. 192.

o'zaro munosabatlarda tahqirlanishni engil koyishga yo'yishi orqali qahramonning qadr-qimmatidan mahrum qilina borib, mutelikka allaqachon ko'niktirilganiga ishora bor. Har ikkala salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan sinonim yonma-yon qo'llanganda esa badiiy tasvir va tasavvurning mukammalligi ta'minlangan: Qo'chqor. *Nima qipti, el qatori yashayapmiz...*

Alomat. *Shunday deb o'zingizni ovutasiz. Qadr-qimmat-chi? Men odam emasman, lekin shularni o'ylarverib-o'ylayverib, ichimdagi murvatlarim qizib ketyapti! Menchalik ham emasmisiz, Qo'chqor aka?! Biron tirik jon siz bilan hisoblashadimi? Birovga gapingiz o'tadimi? ...To'y-ma'rakalarda poygakda o'tirasiz! Ulug'larga tayyorlangan dasturxonga yaqinlasha olmaysiz! Joyingizni bilib o'tirishga majbursiz, chunki "mehnatkash" degan mansab bilan to'rga chiqolmasligingizni yaxshi bilasiz! Shlyapa kiyib, galstuk taqqan ketmondasta ham sizni **haqoratlashi, tahqirlashi** mumkin! Alam qilmaydimi?*

Qo'chqor. *Ha endi, rahbar bo'lgandan keyin koyiydi-da...* ("Temir xotin", 181-bet)

Mohir dramaturg sinonimlarning yuqorida sanab o'tilgan har ikki usulidan ham foydalangan, balki bu kabi maqsadli qo'llangan sinonimlar yordamida badiiy matndagi so'zning estetik jilosini, so'zni saylab tanlay olish mahoratini, asarlari tilining badiiy jihatdan mukammal bo'lishini ta'minlagan.

Antonimlar ham sinonimlar kabi badiiy nutqning ifodaliligini, ta'sirchanligini ta'minlashda ijodkor uchun keng imkoniyatlardan biridir. Lisoniy va kontekstual yoki nutqiy antonimlar badiiy matnda bir-biriga zidlanar ekan, ayni zidlik alohida urg'u oladi, buning barobarida antonimik juftlikdagi har ikki uzv ham badiiy estetik salmoqqa ega bo'ladi. "...antonimlar bilan yuzaga keladigan kontrastlik tasvirning aniq va tiniq chiqishiga imkon beradi. Jivopisda och bo'yoqlar to'q bo'yoqlar fonida yanada ravshanlik kasb etgani singari qarama-qarshi ma'noli so'zlarning o'zaro munosabati asosida ham ifoda ravshanlashadi, emotsional va ekspressiv bo'yoq hosil qilinadi⁹. Sh.Boshbekovning ham antonimlardan foydalanish mahoratini bir necha sof va kontekstual zidliklar misolida tahlil qilish mumkin.

Quyidagi matnda *o'lmoq-tirilmoq* antonim juftligi orqali ifoda yanada ravshanlashadi. Masalan: "*Hech aqlim o'tmaydi, qanaqa odam o'zi bular, a? Qayerdan paydo bo'ladi? Yo tarbiyasi shunaqamikin? (Kuyinib). Axir qurbaqani bossangiz ham "vaq" deydi-ku! Bu qurbaqalarni bossangiz "xo'p" deydi! "O'I" desangiz o'ladi, "tiril" desangiz tiriladi!*" ("Yer baribir aylanaveradi", 301-bet)

Badiiy matn kitobxonga qaratilgan bo'lgani uchun uning yaxlitligicha idrok etilishi, birliklarning matn mazmunidan uzilmagan holda tahlil qilinishi favqulodda muhimdir. Ayni matndagi "*katta odam*" qilish va *hech balo chiqmaslik* birliklari o'rtasida bir qarashda hech qanday zidlik yo'qday, ammo matn bilan yaxlit birlik

⁹ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 13-14.

sifatida anglanganda esa kontekstual zidlanish borligini, lingvopoetik ta'kid olayotganini sezish qiyin emas. Masalan: Alomat. *Endi bor umidingiz bolalaringizdan, ularni o'qitib "katta odam" qilmoqchisiz. Lekin ularingizdan katta odam chiqmaydi. Qishin-yozin daladan beri kelmaydigan chalasavod bolalardan hech balo chiqmasligini bilasiz. Farzandlaringiz o'zingizga o'xshamasligini istaysiz, demak, o'zingizning kimligingizni ham bilasiz! Aqlingiz etadi! Lekin "Ko'pga kelgan to'y", deb yuraverasiz! Axir umr o'tib ketyapti-ku, Qo'chqor aka!* ("Temir xotin", 158-bet)

Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun, asosan, badiiy matnda antonim so'zlardan foydalaniladi. Badiiy matnning lisoniy tahlilida zidlantirishdan yozuvchining ko'zda tutgan maqsadi nima ekanligini aniqlash talab etiladi. Bunda yozuvchining mahorati zidlantirilayotgan voqeliklar uchun tanlangan ifoda materialida yanada aniq ko'zga tashlanadi. Ayol. *Bilmadim, bilmadim... Hamkasbingiz sizga jilmayib salom beradi-yu, bu tabassum ortida nima borligini faqat xudoning o'zi biladi. Qo'g'irchog'ini yo'qotib qo'ygan qizaloqning ko'zyoshlarini biz boshqa narsalarga sarflaymiz! Uning qiqirlab kulishini biz hamkasbimizning mag'lubiyatidan lazzatlanishga xarj qilamiz! Biz shunchaki yig'lamaymiz, shunchaki kulmaymiz! Hech kim bekorga hech nima qilmaydi. Hammasining zamirida tama yotadi.* ("Taqdir eshigi", 25-bet)

Ayni matnda *ko'zyoshi-kulmoq* – "turkumlararo antonimiyasi"¹⁰ va bir so'z turkumi doirasidagi antonimlik hosil qilgan *yig'lamaymiz-kulmaymiz* so'zlari orqali falsafiy mushohada ko'lami g'oyat keng o'z ifodasini topadi. Shu matn davomida dramaturg tomonidan real hayotdagi achchiq haqiqatlar – insondagi nozik kechinmalar ham sun'iy lashib, manfaat yo'lida ulardan foydalanilayotganiga, buni his qilib yashash esa inson uchun nihoyatda og'riqli ekanligi quyidagi matndagi *bor-yo'q; sevmaslik-yaxshi ko'rish; och-to'q* antonim juftliklar orqali hayot past-balandliklari, inson ruhiy iztiroblari ranglarini poetik ifodalashda o'rinli foydalanilgan. Masalan: Ayol. *Baxtli odamlar yo'q, o'zini baxtli qilib ko'rsatadiganlar bor! Buyam san'at. Katta san'at. Yashash san'ati! Ishonmaysan – ishonadigandek bo'lib ko'rinishing kerak! Sevmaysan – o'zingni yaxshi ko'radigandek tutishing kerak! Qorning och, qorni to'qday yurishing kerak. Havo etmay zo'rg'a nafas olyapsan, yana yuz yil yashaydiganday jilmayishing kerak!* ("Taqdir eshigi", 26-bet)

Badiiy asarda mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo'yish, zidlash orqali qahramonlar nutqini shakllantiruvchi ekspressiv sintaktik vositalardan biri bo'lgan antiteza – zidlashlarni yuzaga chiqarishi sir emas: Alomat. *Yig'lagansiz. Faqat ko'zlaringizning narigi tomoni bilan yig'lagansiz. Ko'zyoshlaringiz tashqariga emas, ichingizga oqqan. Mana mening ichim to'la temir-tersak, sizning vujudingiz esa faqat va faqat ko'zyoshidan iborat. Lim-lim yosh...* ("Temir xotin", 26-bet)

¹⁰ Bu haqda qarang: Абдуллаева Д. Ўзбек тилида антисемия: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – Б. 27.

O'zbek xarakterini qizg'ongan¹¹ Boshbekov har qancha ezilsa-da, ko'z yoshini ko'rsatmaydigan matonatli, g'ururli o'zbek erkagi obrazining fe'l-atvorini – bir turkumga oid so'zlar bo'lgan *ichkariga-tashqariga* antonim juftligi orqali badiiy mahorat bilan ko'rsatib bergan.

Badiiy matnda nutqning ifodaviyligi, ta'sirchanligini oshirish maqsadida paronimlardan ham turli lingvopoetik maqsadlarda keng foydalaniladi. Bunday hollarda paronimlarni ataylab adashtirib qo'llash kulgili holatni keltirib chiqaradi hamda so'z o'yinida, askiyada, shuningdek, personajlarning nutqiy xususiyatlarini ochib berishda zarur bo'ladi¹². Badiiy matnlar tarkibidagi paronimlarning stilistik ma'nolarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki masalaga faqat ana shunday yondashishgina ijodkorning bu til imkoniyatidan foydalanish mahoratini ochishga ko'maklashadi. Masalan:

– *Endi turib o'tirsangiz ham bo'laveradi, ko'tarilib bo'ldik, – dedi Fayzulla uning qo'lidan tortib...*

– *Siz ham putyovka bilan ketyapsizmi, uka? – dedi Qo'zivoysal o'ziga kelib.*

– *Bizniki biznes, – erinchoqlik bilan javob qildi Fayzulla.*

– *Firmaning ishlari bilan ketyapman.*

– *Iye, sizam fermamisiz? – dedi Qo'zivoysal qarindosh chiqib qolganday quvonib.*

– *Bizda ham Qarshi ferma degani bor... O'sha yubordi-da, bo'lmasa menga nima...*

– *“Ferma” mas, “firma!” – ta'kidladi Fayzulla. (“Musofir bo'lmaguncha”, 456-bet)*

Bu badiiy matn parchasida paronimlardagi talaffuz o'xshashligi yumor ma'nosini ifodalashda uslubiy vosita sifatida xizmat qilgan va matnda so'z o'yinining mahsuldor vositasi bo'la olgan. Qahramon ikkita o'xshash so'zni – *firma* va *ferma* paronimlarini farqlay olmasligi sababli so'z ma'nolarini qorishtiradi, kulgili vaziyatga tushadi. Bu ijodkorning asarlari matni ustida qunt bilan ishlashidan dalolat beradi. Qahramonning lisoniy saviyasini obrazli qilib ifodalash maqsadida bunday usuldan mahorat bilan foydalaniladi. Shu bilan birga paronim juftliklar talaffuz jihatdan o'xshash bo'lgani uchun nutqda ularni o'zaro farqlay olmaslik ham qahramonning sodda, ilmi ham haminqadar ekanligini ifodalashga yordam bergan hamda komik effekt yaratish uchun uslubiy figura vazifasini o'tagan. Ma'lumki, paronimlarning bunday so'z o'yini sifatida badiiy matnda aks etishi tilshunoslikda paronomaziya atamasi bilan ham nomlanadi¹³. Masalan: – *Aytuvdim-ku, kenjamiz kompyuter jinnisi, – gapni uzoqdan boshladi Parpi.*

– *Internatdan bir xabar eshitibdi...*

¹¹ “Men bilgan haqiqatlar” ko'rsatuvidagi Sh.Boshbeqovning nutqidan. <https://youtu.be/c9DMT2zCTr0?si=w9YmihgaBWG2cwx3>

¹² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. 3-жилд. – Б. 227.

¹³ Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 56.

– **“Internat”**mas, **“internet”**, Toshkent ko‘rmagan.

– *Ha, ishqilib o‘sha-da... – dedi Parpi bepisandlik bilan.* (“Musofir bo‘limguncha”, 458-bet)

Badiiy matn parchasidagi paronomaziya ijodkor kulgili vaziyatni yuzaga keltirish uchun atayin o‘xshash talaffuzli *internat va internet* so‘zlarini keltirgan va ushbu birliklarga poetik ta’kid yuklangan.

Badiiy matnda yana qahramon uchun hali yangi bo‘lgan so‘zning nutqidagi boshqa bir talaffuzi uyqash so‘z yordamida xotirasida saqlanib qolishi kulgi qo‘zg‘atish maqsadida qo‘llanishi ham paronomaziya hosil qilishi mumkinligini quyidagi misol yordamida ko‘rish mumkin: – *Endii, kelin, xudoyim odamzodni erda yurishga yaratgan. – Shuning uchunam oyoq berib qo‘yibdi. Samolyot degani ja bemaza narsa bo‘ladi, lekin padariga qasur-qusir! Ha, padar deganga esimga tushdi... Radardan yo‘qolib qopti Qo‘zim chiqqan samolyot...* (“Musofir bo‘limguncha”, 461-bet)

Yana “Charxpalak” videofilmidagi qahramon nutqidagi paronim orqali badiiy matn aktualligi oshirilishining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Unda atrofiga laganbardor yugurdaklarni to‘plab olgan bir obro‘talab mansabdor shaxs ichkilik ichishdan bosh tortgan raqqosa qiz *Zulxumorga* qarata shunday deydi: *“Mayli majbur qilmaymiz, bizga bu qizimizning sanoati juda ma‘qul”*. Bu badiiy matn parchasida **san‘at** so‘zi o‘rnida **sanoat** paronimik munosabatidan jamiyatda uchrab turadigan ayrim ma‘naviy qashshoq, tilga befarq shaxslarning istehzoli obrazini yaratishga xizmat qilgan. Misollardan ko‘rinadiki, paronimlar o‘rinli tanlab qo‘llanganda juda katta lingvopoetik ahamiyatga ega bo‘ladi. Asarlarida komik ruh yaratishda mohir dramaturg paronomaziya hodisasidan o‘rinli va badiiy zukkolik bilan foydalanganini haqli ravishda ta’kidlay olamiz.

Aytish joizki, Sharof Boshbekov milliy dramalar yaratishda tildagi leksik-semantik vositalarning har biridan unumli foydalangan. Ijodkor tomonidan tanlangan sinonimlarda badiiy matnning emotsional-ekspressivligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Antonimlar voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun ifoda materiali, tugal tasvir vositasi sifatida xizmat qiladi, paronimlar esa komik effekt yaratish, samimiy kulgi qo‘zg‘atish jihatidan tahsinga sazovordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yuldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fanl. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2009.

2. Toshxo‘jaeva Sh. Erkin A‘zam asarlari lingvopoetikasi: Filol. fan. bo‘yicha fals. d-ri (PhD) .. diss. . – Farg‘ona, 2017;

3. Qurbonova M. Mustaqillik davri dostonlari lingvopoetikasi: Filol. fan. bo‘yicha fals. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2017;

4. Shodmonova D. Abdulla Oripov she‘riyatining lingvopoetik xususiyatlari (metoforik hodisa misolida): Filol. fan. nomz ... diss. – Qarshi, 2019;

5. Umirova S. O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik (Usmon Azim she'riyati misolida): Filol. fan. nomz ... diss. – Qarshi, 2019;
6. Muqimova Z. O'tkir Hoshimov asarlari tilining lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2020;
7. Allayorov T. O'zbek tilidagi buyruq va so'roq konstruksiyalarning lingvopoetik xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Guliston, 2020;
8. Yuldashev J. Usmon Nosir she'riyati lingvopoetikasi: Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023.
9. Mahmudov N. Sinonimlar – til zanginligi va ranginligi ko'zgusi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2021. – № 4. – B. 3.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I jild.
11. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022. – B. 461.
12. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 13-14.
13. Abdullaeva D. O'zbek tilida antisemiya: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2010. – B. 27.
14. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 56.